

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

AXMEDOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**JINOYAT ISHIDA DALILLARNI SOXTALASHTIRGANLIK UCHUN
JINOIY JAVOBGARLIK**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Axmedov Ixtiyor Baxtiyorovich

Jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik 3

Ахмедов Ихтиёр Бахтиёрович

Уголовная ответственность за фальсификацию доказательств по
уголовному делу 23

Akhmedov Ikhtiyor Bakhtiyorovich

Criminal liability for falsification of evidence in a criminal case 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

AXMEDOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**JINOYAT ISHIDA DALILLARNI SOXTALASHTIRGANLIK UCHUN
JINOIY JAVOBGARLIK**

12.00.08 – Jinoiyat huquqi. Jinoiyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/Yu153 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Otajonov Abrorjon Anvarovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kabulov Rustam**
yuridik fanlar doktori, professor

O‘razaliyev Murod Qorayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent.sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (71) 265-22-52; (71) 265-17-53; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1638-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (71) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 15-oktabrdagi 15-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dalillarni soxtalashtirish orqali adolatning buzilishi jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Interpol ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yilda sudga taqdim etilgan dalillarning soxtalashtirilishi bilan bog'liq jinoyatlar global miqyosda o'rtacha 15-20 foizga oshgan¹. AQSh Adliya vazirligi hisobotlariga ko'ra, federal darajadagi jinoiy ishlarning 8 foizida dalillarni soxtalashtirish yoki yo'q qilish holatlari qayd etilgan². Evropada ham vaziyat jiddiy bo'lib, Eurojust ma'lumotlariga ko'ra, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda har yili 1000dan ortiq ushbu turdagi jinoyatlar ro'yxatga olinadi³. Bu holat bevosita aybsiz shaxslarning noqonuniy hukm qilinishiga, aybdorlarning javobgarlikdan qochishiga va jamiyatda huquq-tartibot organlariga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro tuzilmalar va ularning faoliyati bugungi zamon talablariga javob bermayotganligini ko'rsatadi. Shu bois dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlikni huquqiy tartibga solish va qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash obyektiv zaruriyatdir.

Jahonda dalillarni soxtalashtirish muammosini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Ularda asosan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, jinoyatning tarkibi va kvalifikatsiya qilish masalalari hamda qonunni qo'llash amaliyotidagi muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, dalillarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarning huquqiy tabiati, ularning sud-tergov jarayonlariga ta'siri va ularga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari o'rganilgan. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda dalillarni soxtalashtirishning zamonaviy usullari, raqamli dalillarni soxtalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ushbu jinoyatning qurbonlari huquqlarini himoya qilish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmagan. Bu esa dalillarni soxtalashtirishning turli shakl va usullarini, shu jumladan, axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan soxtalashtirish holatlarini chuqur tahlil qilish, ularning huquqiy oqibatlarini aniqlash va qarshi kurashishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekistonda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirishga qarshi kurash masalasida sezilarli natijalarga erishilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son farmoni⁴da dalillarning ishonchliligi va soxtalashtirilishiga yo'l qo'ymaslik qat'iy belgilangan. Shuningdek, Jinoyat kodeksi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 4-apreldagi O'RQ-470-son qonuni bilan dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi norma bilan to'ldirilgan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish

¹ Interpol Financial Fraud assessment: A global threat boosted by technology // <https://www.interpol.int/News-and-Events/News/2024/INTERPOL-Financial-Fraud-assessment-A-global-threat-boosted-by-technology>.

² Federal Justice Statistics, 2023 // <https://bjs.ojp.gov/library/publications/federal-justice-statistics-2023>.

³ Eurojust Annual Report 2024 // <https://www.eurojust.europa.eu/publication/eurojust-annual-report-2024>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son farmoni // <https://lex.uz/docs/-3432426>.

konsepsiyasi⁵da mamlakatimizda odil sudlovni ta'minlash borasida muhim yo'nalishlar belgilangan bo'lib, unga ko'ra, jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy vazifalari etib belgilandi. Ushbu vazifalar jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini qalbakilashtirishga qarshi qaratilgan jinoyat qonuni normalarini hamda qonunni qo'llash amaliyotini bugungi zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish masalalarini chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyul O'RQ-703-son "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabr PF-5268-son "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 14-may PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 16-yanvar PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta'minlashga ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Odil sudlov, shu jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni soxtalashtirishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish milliy va xalqaro miqyosda jinoyat huquqi fanining dolzarb masalalaridan sanaladi. Mamlakatimizda jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlikning ayrim jihatlari A.A. Otajonov, A.I. Toshpo'latov, V.T. Sunnatov, G'.O. Ermatov, Z.H. Gulyamov, Y. Raximov, M.X. Rustambayev, N.K. Xojiyev, N.S. Salayev, R. Kabulov, R.A. Zufarov, S.O. Abduxoliqov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Jumladan, N.K. Xojiyev dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish)ning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini hamda mazkur jinoyatning oldini olish choralari, Z.X. Gulyamov odil sudlov manfaatlariga zarar yetkazish borasida dalillarni soxtalashtirgan holda aybsiz shaxsni javobgarlikka tortish, yolg'on xabar berish va yolg'on guvohlik berish jinoyatlari tarkibida tadqiq qilgan, G'.O. Ermatov esa hujjatlarni qalbakilashtirish va jinoyat ishi materiallariga oid hujjatlarni qalbakilashtirishga oid farqlarini hamda kvalifikatsiya qilish masalalarini o'rganganlar.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3735818>.

Xorijlik olimlardan A.D. Vinogradova, A.Y. Nazarov, A.Y. Safronov, V.V. Vishnyakov, G.G. Radionov, I.A. Volkova, Y.V. Budayeva, I.V. Dvoryanskov, I.S. Blagodar, I.S. Ivanov, K.G. Lopatin, K.R. Idrisov, N.R. Emeeva, S.V. Astashov, S.V. Sviridov, T.A. Vedeneeva va boshqalarning ishlari ma'muriy ish yuritish, fuqarolik ishlari va jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni qalbakilashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilash, dalillarni qalbakilashtirishning jinoyat-huquqiy jihatlarini takomillashtirish va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalariga bag'ishlangan.

Shuningdek, A. Simester, A. Millie, G. Sanchez, J. Spencer, K. Hamdorf, L. Achilli, M. Innes, F. Alagna va F. Stark kabi olimlar hamda mutaxassislar tomonidan dalillarni soxtalashtirishning ijtimoiy xavfi va jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilingan⁶.

Respublikamizda aynan jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni soxtalashtirishning jinoyat-huquqiy jihatlarini va kvalifikatsiya qilish masalalarini kompleks tadqiq qilishga qaratilgan monografik tadqiqot o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning 2021–2026-yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturining "O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi dalillarni soxtalashtirishning jinoyat-huquqiy jihatlarini kompleks o'rganish asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, shuningdek, mazkur jinoyatga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilikka takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik haqidagi normalarning rivojlanish tarixi va genezisini o'rganish;

xorijiy davlatlar qonunchiligida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatining tushunchasi va ijtimoiy xavfliligini o'rganish;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilish;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatining predmetini tahlil qilish;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatining og'irlashtiruvchi belgilarini tadqiq qilish;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatini kvalifikatsiya qilish masalalarini tadqiq qilish;

dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik belgilovchi jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilash va ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi normativ hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid ilmiy-nazariy

⁶ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

qarashlar va yondashuvlar hamda o'xshash jinoyatlarni bir-biridan farqlash masalalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonuni normalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni hal etishda ilmiy tadqiqotning umumiy va maxsus usullaridan, ya'ni analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, sotsiologik so'rov o'tkazish, amaliyot materiallarini tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanilgan. Mazkur usullar dissertatsiya tadqiqoti natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishda muammolar va qonunchilikda bo'shliqlar mavjudligi hamda ularni bartaraf etish zarurati sababli "tergovga qadar tekshiruv organlari" mansabdor shaxsini hamda "advokat"ni dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining subyekti sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan;

jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshirish va ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoiy oqibatlarining oldini olish choralari kuchaytirish zaruratining mavjudligi sababli dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) "odam o'limiga sabab bo'lgan"da javobgarlik differentsiatsiya qilinishi lozimligi isbotlangan;

Jinoyat kodeksining 230²-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan faoliyat subyektlarining to'g'ridan-to'g'ri aniqlashtirilmaganligi, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi barcha organlarda bunday huquqning mavjud emasligi amaliyotda ushbu normani qo'llashda muammolarni keltirib chiqarayotganligi, mazkur qilmish uchun og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlik belgilash zaruratining mavjud emasligi sababli "axborotni nooshkora olish uchun mo'ljallangan maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan" tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) bilan bog'liq qilmishni "Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish)" jinoyatining og'irlashtiruvchi tarkibidan chiqarish maqsadga muvofiqligi isbotlangan;

jinoyat sodir etganlikdagi aybdorlik masalasi faqat maqbul dalillar bilan isbotlangan taqdirdagina jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari mavjud bo'lishi va ushbu tartibni qonunchilikda belgilash zaruriyatining mavjudligi sababli qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi shartligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dalillarni soxtalashtirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda boshqa o'xshash jinoyatlardan (aybsiz kishini javobgarlikka tortish, adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish, yolg'on guvohlik berish) farqlashdagi muammolarni bartaraf qilish maqsadida "isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar yoki isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar" so'zlarini "Tergovga qadar tekshiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki himoyachi (advokat)" so'zlari bilan almashtirish lozimligi asoslangan;

dalillarni soxtalashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilovchi jinoyat tarkibining tuzilishida jinoyatning maqsadi belgilanmaganligi bois, ushbu turdagi jinoyatni boshqa turdosh jinoyatlardan farqlash, uning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash va jazoni individuallashtirish nuqtai nazaridan dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyat uchun javobgarlik belgilovchi normasini "shaxsni qonunga xilof ravishda ushlab turish,

hibsga olish yoki hibsdan saqlash, hukm qilish, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish yoxud oqlash, xuddi shuningdek ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilish maqsadida" degan so'zlar bilan to'ldirish lozimligi isbotlangan;

jinoyat qonunining dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik belgilovchi normasida dalillarni yo'q qilish, sun'iy dalillarni hosil qilish, ishga aloqasi bo'lmagan dalillarga almashtirish, o'zgartirish yoxud ishga aloqador dalillarni yashirish uchun javobgarlik belgilanmaganligi sababli, bunday huquqiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining obyektiv tomonida "dalillarni to'plash, tekshirish va baholash chog'ida ish bo'yicha haqiqiy holatlarni buzib ko'rsatish orqali dalillarni soxtalashtirish, yo'q qilish, sun'iy dalillarni hosil qilish, ishga aloqasi bo'lmagan dalillarga almashtirish, o'zgartirish yoxud ishga aloqador dalillarni yashirish" kabi qilmishlarni kiritish lozimligi asoslangan;

"g'arazli yoki boshqa past niyatlarda" sodir etiladigan dalillarni soxtalashtirish ushbu turdagi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshirishi tufayli bunday qilmishning oldini olish choralari kuchaytirish hamda kvalifikatsiya qilishdagi muammolarni bartaraf qilish maqsadida "g'arazli yoki boshqa past niyatlarda" sodir etilgan dalillarni soxtalashtirish uchun jinoyatning og'irlashtiruvchi holatlarida javobgarlik belgilash lozimligi isbotlangan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi "Dalillar maqbuligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 24-son qarorida dalillarni yo'q qilish, dalillarni almashtirish, dalillarni o'zgartirish, dalillarni yashirish va jinoyat ishi bo'yicha sun'iy dalillarni taqdim etishga tushuntirish berish lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 90 ta sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 300 ta surishtiruvchi, tergovchi va sud xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi hamda tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi fanini o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishda qonunchilikdagi muammolar va bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida "tergovga qadar

tekshiruv organlari” mansabdor shaxsini va “advokat”larni dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining subyekti sifatida belgilash zarurati to‘g‘risidagi taklifidan yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 332-moddasi uchinchi qismi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 4-iyuldagi 27/2-141-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishdagi muammolarni bartaraf etishga hamda ushbu jinoyat subyektlarining aniqlashtirilishiga xizmat qiladi;

jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshirayotganligi va ijtimoiy xavfli jinoyat oqibatlarining oldini olish choralari kuchaytirish zarurati tufayli “*odam o‘limiga sabab bo‘lgan*” dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish zarurati to‘g‘risidagi taklifidan yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 332-moddasi uchinchi qismi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 4-iyuldagi 27/2-141-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyati uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilinishiga xizmat qiladi;

“Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish)” jinoyatining og‘irlashtiruvchi tarkibidan “axborotni nooshkora olish uchun mo‘ljallangan maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan” qilmishni chiqarib tashlash to‘g‘risidagi taklifidan yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksining 332-moddasi uchinchi qismi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Bu amaldagi Jinoyat kodeksining 230²-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan faoliyat subyektlarining aniq belgilanmaganligi, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi barcha organlarda bunday huquqning yo‘qligi amaliyotda ushbu normani qo‘llashda muammolarni keltirib chiqarayotganligi bilan shartlanadi. Shu bois og‘irlashtiruvchi holatlarda bunday qilmish uchun alohida javobgarlik belgilashning zaruriyati mavjud bo‘lmaydi. (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 4-iyuldagi 27/2-141-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishdagi muammolarni bartaraf etishga va adolatli jazo chorasini qo‘llashni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxsiy huquq va erkinliklarni hamda qonunlarda belgilangan tartiblarni buzgan holda yoxud qonunlarda nazarda tutilmagan harakatlar natijasida to‘plangan dalillar qonunni buzgan holda olingan dalillar deb e‘tirof etilishi lozimligiga oid taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 16-son qarorining 9-bandi 2-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 29-apreldagi 08/431-24-son dalolatnomasi*). Ushbu takliflar shaxsni ayblash asosiga qo‘yiladigan har qanday dalilning soxtalashtirilishi, yo‘q qilinishi, almashtirilishi, o‘zgartirilishi hamda ayblovning sun‘iy dalillarini yaratilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola (shundan 3 tasi xorijiy nashrlarda) va 10 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlikning ijtimoiy va nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlikning shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy tahlili, jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirish tushunchasining nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy xavflilik xususiyatlari hamda xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchining aniqlashicha, milliy jinoyat huquqi rivojlanishi jarayonlarida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik quyidagi tarixiy-huquqiy bosqichlarda shakllanib, rivojlanib bordi, ya'ni:

birinchi, sud manfaatlarining huquqiy himoyasi qadimiy davrlardan ma'lum bo'lib, dastlab “Avesto” davrida oqsoqollar kengashining mo'tabar ulamosi – kohin oliy sudya vazifasini bajargan va “Avesto” muqaddas kitobida qayd qilingan qoidalar asosida ish olib borgan. Bu davrda odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilishga qaratilgan har qanday qilmish jazolangan;

ikkinchi, O'rta Osiyo hududlariga Islom dini kirib kelishi bilan sudlov ishlari asosan islom huquqi (shariat) qoidalari asosida qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Bu davrda odil sudlovga to'sqinlik qilish va dalillarni soxtalashtirishga oid harakatlar (masalan, yolg'on guvohlik berish, soxta hujjat tuzish) “gunohi kabira” (katta gunoh) sifatida baholanib, qattiq jazolangan. Islom huquqida dalillarga, ayniqsa, guvohlikka qo'yilgan qat'iy talablar (masalan, guvohlarning soni va adolatli bo'lishi) adolatsizlik va dalillarni soxtalashtirishning oldini olishga qaratilgan muhim huquqiy kafolat bo'lgan;

uchinchi, Amir Temur saltanati davridan to Oktabr inqilobigacha bo'lgan davrda sudlov ishlari islom huquqshunosligidagi o'ziga xos mansablardan biri sanalgan qozilar tomonidan amalga oshirildi. Bunda qozi sudlari faoliyatiga aralashish va to'sqinlik

qiladigan har qanday harakatlar, shu jumladan aybsiz shaxsning jazolanishiga olib keladigan har qanday qilmishlar jazolanadigan qilmish sifatida baholangan;

to'rtinchi, Sovetlar davrida jinoyat to'g'risidagi masalalar huquq normalari tariqasida Jinoyat kodeksi sifatida qabul qilindi, biroq unda dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi mustaqil norma belgilanmagan, balki boshqa jinoiy qilmishlar (mansab vakolatini suiiste'mol qilish, mansab soxtakorligi, aybsiz kishini javobgarlikka tortish, yolg'on xabar berish, yolg'on guvohlik berish) doirasida javobgarlik belgilangan;

*beshinch*i, dalillarni soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik 1994-yil 22-sentabrda qabul qilinib, 1995-yil 1-aprel kundan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksiga 2018-yil 4-aprelda tegishli qonun bilan o'rnatildi va unga asosan bu turdagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus jinoyat tarkibi belgilangan.

Dissertantning fikricha, milliy jinoyat huquqi rivojlanishining Oktabr inqilobigacha bo'lgan davrida dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik masalalari adolatsiz hukm chiqarilishiga olib keluvchi muayyan shakllarda ifodalangan, ya'ni unda yolg'on qasam bilan ont ichgan holda sudlarga jinoyat to'g'risida yolg'on xabar berish, yolg'on guvohlik berish yoki sudlarga soxta ashyolarni taqdim etish yoxud ularni to'g'ridan-to'g'ri soxtalashtirishda ifodalangan qilmishlar uchun javobgarlik kelib chiqqan. Oktabr inqilobidan keyin va sobiq Ittifoq davrida esa dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik muayyan jinoyatning usuli yoki og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanib, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ayblovning sun'iy dalillarini vujudga keltirgan holda aybsizligi ayon bo'lgan shaxsni javobgarlikka tortishda yoki shunday usullar bilan guvoh yoki jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on xabar va yolg'on ko'rsatmalar berish kabi harakatlarda ifodalandi.

Tadqiqotchining qayd etishicha, dalillarni soxtalashtirish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi odil sudlov manfaatlariga zarar yetkazishda, sud tizimi va tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov, prokuratura organlariga hamda advokatura faoliyatiga ishonchni susaytirishda hamda odil sudlovning obro'-e'tiborini buzishda ifodalanadi, shuningdek, shaxslarning huquq va erkinliklari kafolati bo'lgan sud himoyasi va adolatlil sudlovga bo'lgan ajralmas huquqlarining buzilishida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada jinoyat ishi bo'yicha dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlikka oid MDH (Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston), Latviya, Litva, Gruziya, Ukraina, Turkmaniston, Estoniya, Avstriya, Polsha, Bolgariya, Shvetsiya, Niderlandiya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Serbiya, AQSh, Avstraliya, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribalari o'rganilgan.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, xorijiy davlatlar qonunchiligida dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik masalasi ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) dalillarni soxtalashtirish odil sudlovga qarshi jinoyat sifatida maxsus normada javobgarlik belgilanadi;

2) dalillarni soxtalashtirish uchun mustaqil normada javobgarlik belgilanmaydi, balki dalillarni soxtalashtirish mansab soxtakorligi yoki hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirishning bir turi sifatida baholanadi.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, MDH mamlakatlari tajribasini o'rganish dalillarni soxtalashtirish uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda ma'lum izchillikni qayd etishga imkon beradi, garchi ushbu mamlakatlar tanlagan yondashuvlarda, shak-shubhasiz o'ziga xoslik mavjud. Boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda, ularda jinoiy javobgarlikni tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, dalillarni soxtalashtirish alohida shakl sifatida e'tirof qilingan soxtalashtirish tizimini shakllantirishga asoslangan doktrina mavjud.

Xususan, Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlari jinoyat qonunchiligining dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalarini tahlil qilishda ularning milliy qonunchilik bilan ayrim o'xshash jihatlari mavjud bo'lishi bilan birga o'zaro farq qiladigan jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Buni quyidagilar orqali kuzatish mumkin:

birinchidan, jinoyat predmetining doirasi turlicha: ishga daxldor bo'lgan faktlarni o'zida ifodalovchi hujjatlar (Niderlandiya), "ekspertiza natijalari" (XXR), "fuqarolik va jinoyat sud ishlari bo'yicha dalillar" (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Gruziya, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikiston, Qirg'iziston), "ma'muriy, fuqarolik va jinoyat sud ishlari bo'yicha dalillar" (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston), "fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat sud ishlari bo'yicha dalillar" (Belarus), faqat jinoyat ishlari bo'yicha dalillar (Latviya, Ukraina);

ikkinchidan, obyektiv tomon harakatlariga ko'ra, dalillarni yo'q qilish (Serbiya, Kaliforniya, Janubiy Koreya);

uchinchidan, jinoyat subyekti tahlil qilingan xorijiy davlatlar kodekslariga binoan dalillarni soxtalashtirish subyektlari bevosita ishda ishtirok etuvchi shaxslardir hamda ayrim davlatlarda sud majlisi kotibi (XXR) yoki ommaviy mansabdor shaxslar (Yaponiya) ham jinoyat subyekti bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy tavsifi**" deb nomlangan ikkinchi bobida dalillarni soxtalashtirishning obyektiv va subyektiv belgilari hamda dalillarni soxtalashtirish jinoyatining kvalifikatsiya belgilari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida qayd qilinishicha, dalillarni soxtalashtirish jinoyatining obyektini quyidagilar tashkil qiladi: 1) *umumiy obyekt* shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari; 2) *maxsus obyekt* davlat, xususan, sud hokimiyati, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov, prokuratura organlarining manfaatlari; 3) *turdosh obyekt* odil sudlov manfaatlari, ya'ni jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud ishlarini yuritish hamda tezkor-qidiruv faoliyatining belgilangan tartibi; 4) *asosiy bevosita obyekt* tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlari tomonidan sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida hamda sudlarning jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda ishonchli dalillarni olishning belgilangan tartibi; 5) *qo'shimcha bevosita obyekt* jinoyat prosessi ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilish, shaxsiy daxlsizlik huquqi, ishni sudda adolatli va xolis ko'rib chiqish tartiblarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Dissertantning ta'kidlashicha, dalillarni soxtalashtirish jinoyatining predmetlari qalbaki yozma va ashyoviy dalillar, mutaxassis xulosasi, audio va video materiallar, maxsus texnik vositalar yordamida olingan materiallar, elektron dalillar, gumon

qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi hamda guvohning ko'rsatmalari, tergov va sud harakatlari bayonnomalari, tarjimonning tarjimasi, mutaxassisning ish bo'yicha taqdim etgan material (xulosa)lari va boshqa hujjatlar bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot ishida dalillarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni dalillarni soxtalashtirish, ish bo'yicha haqiqiy dalillarni yo'q qilishi, sun'iy dalillarni hosil qilishi yoki ishga aloqasi bo'lmaganiga almashtirishi, o'zgartirishi yoxud ishga aloqador dalillarni yashirishi hamda loaqal ushbu qilmishlardan biri sodir etilgan vaqtdan e'tiboran tugallangan jinoyat deb topish lozimligi hamda dalillarni soxtalashtirish jinoyatining subyekt maxsus subyekt hisoblanishi, ular tergovga qadar tekshiruv organlari, surishtiruvchi, tergov, prokuror, isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar yoki 16 yoshga to'lgan aqli raso isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar bo'lishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dalillarni soxtalashtirish uchun jinoiy javobgarlik faqat to'g'ri qasddan sodir etilgan hollardagina kelib chiqadi. Ushbu jinoyat uchun javobgarlik aybning ehtiyotsizlik shaklini inkor etadi, garchi sud amaliyotini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pincha jinoyat (masalan, tergov va surishtiruv organlari xodimlari tomonidan) shaxsning o'z vazifalariga loqayd yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida sodir etiladi.

Tadqiqotchining fikricha, dalillarni soxtalashtirish natijasidagi og'ir oqibatlarga adolatsiz sud hujjatining qabul qilinishi, adolatsiz sud hujjatining amalda bajarilishiga olib kelishi, qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olinishi, shaxsning og'ir kasalga (shu jumladan ruhiy holatining buzilishiga sabab bo'lishi) chalinishi yoki o'zini o'zi o'ldirishi yoxud o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilishi, sog'lom shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini tayinlashga olib kelgan holatlarni kiritish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti va unga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish”** masalalariga bag'ishlanib, unda dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti, undagi muammolar hamda dalillarni soxtalashtirishga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishining ushbu bobida jinoyat qonuni normalarini qo'llash amaliyotida dalillarni soxtalashtirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar tahlil qilingan. Xususan, unda qonunni qo'llash amaliyotida ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar bevosita ushbu muammo doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, surishtiruvchi, tergovchi va sudyalarning o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma hamda jinoyat ishi materiallarini o'rganish asosida aniqlangan.

Tadqiqotchi mazkur bobda amaldagi jinoyat qonunining dalillarni soxtalashtirish, qalbakilashtirish uchun javobgarlik belgilovchi normasini qo'llashda muammolar mavjud ekanligini ko'rsatib bergan. Dissertantning bunday fikrga kelishiga ijtimoiy so'rovda qatnashgan respondentlarning “Sizningcha, amaldagi jinoyat qonunining dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) uchun javobgarlik belgilovchi normasini (JK 230¹-m.) amalga joriy qilishda muammolar mavjudmi?” degan savolga 72 foizi “Ha, mavjud” deya javob berganligi turtki bo'lgan. Shuningdek, tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovda mutaxassislarga “Sizningcha, jinoyat qonunida dalillarni

soxtalashtirish (qalbakilashtirish) uchun javobgarlik belgilovchi normasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 230¹-moddasi (bundan keyin JK deb yuritiladi) dispozitsiyasining tuzilishi mazkur jinoyatning mazmunini amalda to‘liq tushunish uchun imkon beradimi?”, degan savol bilan murojaat qilinganda ularning 68 foizi “Javob bermaydi” degani ham bu borada muammolar borligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiya ishida tadqiqot natijalariga ko‘ra, tergov va sud amaliyotida dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230¹-m.) jinoyatini kvalifikatsiya qilishda yo‘l qo‘yilayotgan eng ko‘p xatoliklar va muammolar qatorida quyidagilar ko‘rsatiladi:

tergov va sud amaliyotida dalillarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv belgilarini qo‘llash borasida turlicha yondashuvlar mavjud;

jinoyat ishida dalillarni soxtalashtirish himoyachi (advokat) tomonidan sodir etilganda bunday qilmishni JK 230¹-moddasi bo‘yicha dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) kabi huquqiy baho berish borasida muammolar mavjud;

isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar tomonidan sodir etilgan dalillarni soxtalashtirish jinoyatini yolg‘on guvohlik berish jinoyatidan farqlashda muammolar mavjud;

dalillarni soxtalashtirish jinoyatining subyektiv tomonidagi maqsadning jinoyat tarkibi normasida bevosita ko‘rsatilmaganligi, amaliyotda jinoiy qilmishlarni huquqqa xilof bo‘lsa-da, jinoiy bo‘lmagan harakatlardan farqlash va kvalifikatsiya qilishda jiddiy xatoliklar hamda muammolarga sabab bo‘lmoqda. Bu holat huquqni qo‘llovchi organlar uchun qilmishning jinoiyligini aniqlashda qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda;

dalillarni soxtalashtirish jinoyati uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi normada jinoyatning motivi, ya‘ni qilmishlarning faqat “g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda” sodir etilganligi jinoiy javobgarlikning sharti sifatida belgilanishi, ushbu normaning amaliyotda uchraydigan dalillarni soxtalashtirishning boshqa holatlariga (faoliyatda yo‘l qo‘ygan xatoni yashirish yoki javobgarlikdan qochish, yaqin kishisining qonunga xilof qilmishini yashirish va uni himoya qilish istagi, xizmat manfaatlarini noto‘g‘ri tushunish yoki muayyan natijaga erishish uchun o‘ta ishtiyoq va boshq.) nisbatan tatbiq etilishida cheklovlarga olib kelmoqda. Bu esa jinoyat tarkibining subyektiv tomoniga oid ushbu tor yondashuv huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun real vaziyatlarni kvalifikatsiya qilishda qiyinchiliklar tug‘dirib, mavjud qilmishga adolatli huquqiy baho berishga to‘sqinlik qilmoqda;

jinoyat qonunida dalillarni soxtalashtirish jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi aksariyat holatlarning (masalan, qilmishning adolatsiz hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarishga, odam o‘limiga sabab bo‘lishi, takroran yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etish va boshq.) alohida belgilanmaganligi, amaliyotda javobgarlikni individuallashtirish, qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga imkon bermayapti va natijada bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun adolatli va mutanosib jazo tayinlashda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqotchi dissertatsiya ishida dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230¹-m.) jinoyatini tugallangan jinoyat deb topish masalasida muammolar borligini hamda dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga vakolatli shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmishlarni (JK 230²-m.) huquqiy baholashda turlicha yondashuvlar mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Xususan, tadqiqot ishida keltirilishicha, birinchi holat bo'yicha o'rganilgan jinoyat ishlarining 36 foizida dalillarni soxtalashtirganlik uchun javobgarlik uning obyektiv tomoniga oid qilmishlarning barchasi mavjud bo'lganda, 41 foizida aybsiz shaxsni javobgarlikka tortilishiga oid dalillarni to'liq prosessual tartibda rasmiylashtirilgan, 36 foizi dalillarni soxtalashtirishga oid prosessual hujjatlarni jabrlanuvchiga e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran tugallangan jinoyat deb baholangan, ikkinchi holat bo'yicha esa tadqiqot ishida qatnashgan respondentlarning 62 foizi ushbu holatlarni jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun mustaqil javobgarlik belgilovchi normalar belgilanganligi bilan izohlashgan.

Tadqiqot ishida dalillarni soxtalashtirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar va muammolarni bartaraf qilish uchun Jinoyat kodeksining dalillarni soxtalashtirish uchun javobgarlik belgilovchi normasini sud amaliyoti muammolarini bartaraf etish nuqtai nazaridan takomillashtirish (88 foiz); dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishga oid sud amaliyoti haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining maxsus qarorini qabul qilish (78 foiz), surishtiruvchi va tergovchilarning malakasini tizimli ravishda oshirib borish (42 foiz) zarur degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiya ishida kelgusida dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatini kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar va muammolarni bartaraf qilish hamda ushbu turdagi jinoyatga qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Jumladan, tadqiqot ishida dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230¹-m.) jinoyatini "Dalillarni soxtalashtirish, qalbakilashtirish yoki yo'q qilish" deb nomlagan holda unda jinoyat subyektlarining doirasini aniqlashtirish lozimligi ilgari suriladi, ya'ni:

birinchidan, amaldagi normaning 1-qism dispozitsiyasida "isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar" deganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining (bundan keyin – JPK deb yuritiladi) 86-moddasiga asosan "surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud nazarda tutilgan. Lekin JKning 230¹-moddasi bo'yicha "sud"ni ham subyekt sifatida tan oladigan bo'lsak, JKning 231-moddasi (Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish)ni qo'llashda va kvalifikatsiya qilishda kolliziya holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki JKning 231-moddasi obyektiv tomonining belgisi sifatida dalillarni soxtalashtirish yoki qalbakilashtirishga qaratilgan qilmishlar ham bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230¹-m.) moddasining subyektlar qatoriga himoyachi (advokat)ning ham kiritilishi lozim. Chunki JPKning 86-moddasi 2-qismiga asosan himoyachi (advokat) ham isbot qilishda ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadi;

uchinchidan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslarining JK 230¹-moddasida nazarda tutilmaganligi sababli mazkur organ mansabdor shaxslarini ham ushbu jinoyatda subyekt sifatida kiritish lozim. Chunki JPKning 39¹-moddasi 2-qismiga asosan "*Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga zarur choralar ko'rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, Jinoyat-prosessual kodeksining qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish*

mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish vazifasi yuklatiladi" deya belgilab o'tilgan;

to'rtinchidan, amaldagi JK 230¹-moddasidan "isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar" jumlasini chiqarib tashlanishi lozim. Negaki JPKning 86-moddasiga asosan "isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar" qatoriga "guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislari, shuningdek, boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar" kiritilishi belgilangan. Bu shaxslar tomonidan dalillarning soxtalashtirilishi yoki qalbakilashtirilishi JKning 230¹, 237 va 238-moddalari bilan kvalifikatsiya qilishda qarama-qarshiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, tadqiqotchining ta'kidlashicha, JK 230¹-moddasi 1-qismini ushbu normadan ko'zlangan "shaxsni qonunga xilof ravishda ushlab turish, hibsga olish yoki hibsdan saqlash, hukm qilish, javobgarlik yoki jazodan ozod qilish yoxud oqlash, xuddi shuningdek ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilish" degan maqsadlar bilan to'ldirish lozim. Chunki unda, birinchidan, jinoyat qonunchiligida normaning qonunchilikka kiritilish sababi va undan ko'zlangan maqsadini aniqlashtirib berish lozim va ikkinchidan, dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining subyektiv tomonidagi maqsadning jinoyat tarkibi normasida bevosita ko'rsatilmaganligi, amaliyotda jinoiy qilmishlarni jinoiy bo'lmagan harakatlardan farqlash va kvalifikatsiya qilishda jiddiy xatoliklar hamda muammolarga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqotchining fikricha, dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining tarkibini "ish bo'yicha haqiqiy holatlarni buzib ko'rsatish orqali dalillarni soxtalashtirish, qalbakilashtirish, yo'q qilish, sun'iy dalillarni hosil qilish, ishga aloqasi bo'lmagan dalillarga almashtirish, o'zgartirish yoxud ishga aloqador dalillarni yashirish" kabi obyektiv tomon qilmishlari bilan kengaytirib, takomillashtirish maqsadga muvofiq. Chunki huquqiy aniqlik va ta'rifning to'liqligi, sud amaliyotida normaning bir xil qo'llanilishi, jinoyatlarni aniqlash va isbotlashda asos bo'lishga hamda jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan ajratishga xizmat qiladi.

